www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

O’zbek , ingliz va koreys tillarida turizm terminlarining qiyoslanishi

Akbarov Alisher Ahmadjon o’gli

O’zbekiston-Koreya xalqaro universiteti tarjimoni

alisherakhmatjonovich@gmail.com

Annotatsiya *:* Maqolada turizmga aloqador bir qancha terminlarning o`zbek,ingliz va koreys tillarida leksik-semantik xususiyatlari qiyoslangan.

Kalit so`zlar: Turizm, turist, ijtimoiy turizm, birlamchi turizm biznesi, turizm resurslari.

Bilamiz-ki,turizm sohasi bugungi kunda davlatimiz iqtisodiyotining muhim jabhalaridan biri bo`lib kelmoqda. Bilamizki, yurtimizning, xususan, Farg’ona viloyatining Janubiy Koreya davlati bilan turli xil sohalardagi munosabatlari yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Shu jumladan, turizm sohasida ham. Farg’onada turizm fakulteti mavjud bo’lgan Koreya xalqaro universiteti ham ochilgan bo’lib, respublikamizdan Janubiy Koreyaga borib, turizm sohasida o’qiyotgan talabalar soni ham oz emas. Shu tufayli turizm terminlarini bevosita o’zbek va koreys tillari orqali o’rganishga talab ortib bormoqda. Lekin ayni vaqtda yetarli adabiyotlar va sohaga doir qilingan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha emas. Ushbu maqola orqali turizm terminlarini o’zbek va koreys tillarida mazmun va mohiyati, qo`llanilishini chog’ishtirib, shu soha vakillari va talabalar uchun o’rganishni osonlashtirish rejalashtirilgan.

Ingliz tilidagi turizm 투어리즘 (tourism) so’zi “tur(tour)” va “sayohat(travel)” so‘zlaridan olingan atama hisoblanadi. Lotincha “tornus” (aylanmoq, atrofini aylanmoq) so’zidan kelib chiqqan bo’lib, odatda zavqlanish uchun amalga oshirilgan qisqa muddatli sayohat ma’nosini beradi. Oxir-oqibat, xitoycha “chánčі” (‘ 觀 光 ’) belgisi turizm atalmish harakatining maqsadi va obyektini, inglizcha “turizm”(tourism) esa harakatning maqsadi va davrini ta'kidlash ma'nosiga ega. [1]

O`zbek tilida turizm [fr. *Tourisme – tour aylanish, sayr-sayohat qilish*].

Ham dunyoni ko’rish, bilish, o’rganish, ham dam olish maqsadida tashkil etiladigan sayr-sayohat. Xalqaro turizm. Misol: Saxiy quyosh,tinchlik va saxovat o’lkasi bo’lgan respublikamizga jahonning turli mamlakatlaridan ko’plab turizm va sayohat ishqibozlari kelmoqdalar. Gazetadan. Turizmning tobora rivojlanayotganini e’tiborga olib , turistik poezdlar marshruti yanada ko’paytiriladi.‘Fan va turmush’[2]

Endi turizmning ta'rifini keltiramiz

Jahon sayyohlik tashkiloti (JST) 국제관광기구 (World Tourism Organigation, WTO)turist 관광객(tourist)ni tashrif buyurgan mamlakatda 24 soatdan ortiq bo‘lgan va dam olish, ishlash, uy yumushlari, do‘stlar bilan tashrif buyurish, uchrashuvlar va missiyalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlagan vaqtinchalik tashrif buyuruvchi deb ta’riflaydi. U yashash joyini tark etib, tashrif buyurgan mamlakatda professional maqsadlardan tashqari boshqa mamlakatlarga tashrif buyuradigan tashrif buyuruvchilar 방문객(visitor)dan ajralib turadi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Yagona akademik ta'rif turizm fenomenining xususiyatlarini yagona akademik nuqtai nazardan o'rganishdan iborat bo'lib, odamlarning vaqtinchalik harakatlanish istagi ta'kidlanadi va turizm tushunchasi dam olish, sog'liq, stressdan xalos bo'lish, madaniy motivatsiya, ta'limga qiziqishni o'z ichiga oladi.

Turizmning fenomenologik ta'rifi sayyoh sayohatga chiqqanda sodir bo'ladigan turli xil hodisalarga qaratilgan bo'lib, turizm mahalliy aholi va turistlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirdir.

Quyida turizmga oid koreyscha atamalar lug’ati ham ko`rib chiqamiz.

1. Turist 관광객(kvangvanggek) [3]

Kundalik hayotini tark etib, yana qaytish niyati bilan harakatlanib va tunab qolib, ruhiy, jismoniy zavq olishga intiladigan turistik iste'molchi, ya'ni turizm subyekti.

2. Ijtimoiy turizm 복지관광 (bokjikvangvang) Aholining ijtimoiy kayfiyatini yaxshilash va salomatligini mustahkamlash maqsadida kam daromadli qatlamga ichki turizmdan bahramand bo‘lishini rag‘batlantirish va buni amalga oshirish uchun maxsus qo'llab-quvvatlash va jamoat obyektlarini kengaytirish , pullik ta'til tizimini joriy etish kabi ijtimoiy ta'minot siyosati orqali turizmga ijtimoiy himoya nuqtai nazaridan yondashish tushunchasi.

3. Ommaviy turizm 대중관광 [dechungkvangvang] (mass tourism)

Transportning rivojlanishi, ish vaqtining qisqarishi hisobiga bo‘sh vaqtning ko’payishi, turizm haqidagi tasavvurning o‘zgarishi, daromadni oshirish, onlayn tijoratning rivojlanishi kabilar fonida ommalashgan keng jamoatchilik ishtirok etadigan katta hajmdagi turizm

4. Birlamchi turizm biznesi (to'g'ridan-to'g'ri provayder,ya’ni ta’minotchi)

1 차 관광사업 (직접 제공자) (Il cha kvangvang saob)

Turistlarga to'g'ridan-to'g'ri tovarlar yoki xizmatlar ko'rsatadigan turizm biznesi bo’lib, mehmonxonalar, sayyohlik agentliklari, restoranlar, chakana sotuvchilar, aviakompaniyalar va barcha transport provayderlari shular jumlasidandir.

5. Ikkilamchi turizm biznesi (qo'shimcha xizmat) 2 차 관광사업 (보조서비스)

[I cha kvangvang saob]

Asosiy (birlamchi) turizm biznesi uchun tovarlar yoki xizmatlar ta'minlaydigan turizm biznesi bo’lib , shartnoma bo'yicha oziq-ovqat xizmati, kir yuvish biznesi, oziq-ovqat provayderi, ulgurji sayohat biznesi, turizm nashrlari va boshqalarni o’z ichiga oladi.

6. Turizm resurslari 관광자원 (Kvangvang chavon)

Turistlarda turizm motivatsiyasi yoki istagini yuzaga keltiradigan turizm obyekti ma’nosini bildiradi ; Turistlarni jalb qilishi mumkin bo’lib, daromadini oshirishda iqtisodiy jihatdan ahamiyatlidir.

Xulosa o’rnida shuni qayd etishim mumkin-ki, turizm terminlari ushbu fanni chuqur o’rganish uchun juda ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu maqola tilni va fanni o’rganuvchilar uchun albatta foydali bo’ladi. Terminlarni to’g’ri tushunish va qo’llay olish sohada katta yengillik yaratadi. Yuqorida keltirilgan fikrlar va atamalar amaliy hayotda ham manfaatli bo’lishini xohlaymiz.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Koreya madaniyati milliy ensiklopediyasi 한국민족문화대백과사전(Encyclopedia of Korean Culture)

2 O`zbek tilining izohli lug`ati. 5-jildli. Toshkent 3.Chet ellik talabalar uchun asosiy atamalar kitobi, 86-87-betlari. Dong-A universiteti (외국인 유학생 기초학문용어집 86-87-페이지. 동아 대학교) 홈페이 (vebsayt): http://www.donga.ac.kr